

**BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI  
TA'LIM**

*NamDU Yuridik fakulteti  
3-kurs talabasi  
Mirzanazarova Samina Muzaffarovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, ayollarning barqaror taraqqiyotdagi, ilm-fan va sifatli ta'lilda ayollarning qanchalik muhim o'rinda ekanliklari haqida so'z yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** barqaror taraqqiyot, ayol, ilm-fan, sifat, ta'lim

**Annotation:** This article talks about the importance of women in sustainable development, science and quality education.

**Key words:** sustainable development, woman, science, quality, education

**Аннотация:** В данной статье говорится о важности женщин в устойчивом развитии, науке и качественном образовании.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, женщина, наука, качество, образование.

Avvalo so'zimizni "ayol" jumlesi bilan boshlasak. Bizning hukumatimizda ayollarga juda keng ko'lamda e'tibor va hurmat mavjud. Mana shu e'tibor natijasi o'lar oq hozirda hukumatdagi ko'p ayollar yuqori martabalarni egallashmoqda. Ayollar uchun berilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar ila, ular o'z yo'llarini muvaffaqiyat sari davom etishmoqda. Nafaqat hukumatimizda, balki islom dini, bizning hukumatning 90% qism aholisi ushbu dinda ekanligi ayollar uchun cheksiz hurmatni yuzaga keltiradi. Asli ayollarga beriladigan e'tibor va ular uchun mehr-muhabbat berish ham dinimizdan kelib chiqadi. Qo'shni davlatlar bilan solishtirsak, Afg'onistonda ayol va qizlarning oliy ta'lidan chetlash ishlari hozir ham kuzatilmoqda, nafaqat ta'limga, balki ularni orzu-umidlari bilan hech kimning ishi yo'q. u yerdagi jamiyat faqat erkaklargagina bog'liq. O'zbek millatidagi ayollarga hukumatning o'zi barcha muvaffaqiyatli eshiklarni keng ochib bergen. Masalan, kichikligidanoq, jajji qiz bola bo'lganida unga o'gil bolaga ko'rsatilgan qo'pol muomala ko'rsatilmaydi, maktabgacha ta'lilda unga raqs va shu turdagiligi qizlarga hos yengil ammo nafis bo'lgan san'atlarni o'rgatishadi, oshxona va uy ishlariga qiziqish uyg'otishadi, maktabga chiqganida uning uzunlab qolgan mayin sochlarini o'rib, maktab formasida mustaqil tarzda, uni maktabga kuzatayotgan ota-onalarini kuzatishingiz mumkin, qizning chehrasidan esa nur yog'iladi, maktab davrida ham ayollarga ko'p imkoniyatlar mavjud, mustaqil va bepul ta'limga olish huquqiga ega bo'ladi, bu davrda ularni yilda ikki marta tibbiy tekshiruvdan muntazam o'tkazilib turadilar. Ayollar maktab davrini tugallaganlaridan so'ng mustaqil tarzda oliy o'quv

yurtini tanlaydilar. Mana shu tarzda ularga eng keng usuldagi mustaqil ta'lim yaratiladi. Oliy o'quv yurti bu – mustaqil ta'lim yurti demakdir. Imtihon topshiradilar, albatta o'zlarining qiziqgan sohalariga tegishli fanlardan, va o'zlaridagi bor bilimlar asnosida. Ulardagi bilimlar esa, ularga yaratilgan imkoniyatlar natijasida yuzaga keladi. Ayol oliy bilim yurtida o'z bilim va salohiyatlarini yanada kengaytiradi, va shuning oqibatida o'zining yurti uchun sifatli kadr bo'lib yetishadi. U ta'lim olish davrida o'zi hayoliga keltirmagan yanada ko'p imkoniyatlardan foydalanishi mumkin, albatta, bu uning qiziqqonligiga va salohiyatiga bog'liq. Zamon bilan hamnafas bo'lish, doimiy ilm olishga insonni majbur etadi, mana shuning uchun, qiziqqon va yangiliklarga o'ch bo'lган kishilar doim zamon bilan birgadurlar.

Barqaror taraqqiyot deganda doimiy ravishda taraqqiyotning rivojlanishini tushunish mumkin. Hozirda zamonamizda yangi texnologiyalardan foydalanib kelishmoqda. “Barqaror taraqqiyotda ayollar: ilm-fan va sifatli ta'lim” – mavzusida har yili hukumatimizda respublika va xalqaro miqyosda konferensiya tashkil etiladi.



Aslida, ilm-fan va sifatli ta'limda uzoq yillardan buyon xizmat qilib kelayotgan ayollarimiz mavjud. Ular oddiy maktabgacha ta'lim tarbiyalovchilardan tortib yuqori darajali dotsent, professorlargacha boradi. Eng asosiysi, ular “ayolman, ayol uyida o'tirishi lozim” deya izlanishlardan to'xtashmagan, ular doim yangiliklarga o'ch va ilmlarni o'rghanishda doimiy davom etib kelishgan. Haqiqiy ayol timsoli, kuchli, ilmli, eng yaxshi salohiyatlarga ega, tashqi ko'rinishdan ham ichki dunyo qarashlaridan ham eng yaxshi xulqli, iffat sohibasiga ega insondir. Ilm-fan va sifatli ta'limda uning nima ahamiyati bor? Ayol birinchi marta ona bo'lar ekan, u farzandiga eng yaxshi odoblarni, bilimlarni o'rgatish maqsadini oldiga qo'yadi, u farzandini yoshligidan, hali esini tanib ulgurmasidan farzandiga dunyolarni o'rgatmoqchi bo'ladi. Ayollar bilim berishda rang baranglikga juda katta ahamiyat beradilar, samimiyligka amal qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida doimiy ravishda o'zbekga tegishli bo'lган barcha ilm-fan taraqqiyotidan xabardor bo'lib borishadi, va ularni maqola sifatida rasmiy saytlarida xalqga taqdim etib borishadi.

O‘zbekiston hududida qadim zamonlardan beri fan va madaniyat rivojlanib kelayotgan davlatdir. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to‘qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Hozir O‘zbekiston olimlari uzoq o‘tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o‘rganib, o‘zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda jahon fani rivojiga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

IX-X asrlarda O‘rta Osiyo (butun Markaziy Osiyo) zamonaviy akademiyalarga o‘xshash ilk ilmiy muassasa va jamiyatlar tashkil etila boshlagan Sharqdagi yirik ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylandi.

Fanlar akademiyasi faoliyatini kuchaytirishda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 7-avgustdagи “Fan va texnologiyalar rivojlanishini boshqarish va muvofiqlashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi qoshida Fan va texnologiyalar rivojini muvofiqlashtirish komitetini tashkil qilinganligi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mamlakatda fanning yanada rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 1992-yil 8-iyuldagи Farmoni va Vazirlar Mahkamasining “Davlat tomonidan fanning rivojlanishi va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi yuqoridagi Farmonni bajarish yuzasidan chiqargan Qarori ancha ta’sir qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004-yil 9-noyabrdagi 532-sonli “Xorazm Ma’mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida” va 2005-yil 1-noyabrdagi 240-sonli “Xorazm Ma’mun Akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va 1000 yillik yubileyini nishonlashning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlar qabul qildi. Shunday qilib, Xorazm Ma’mun Akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘limi sifatida tiklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tashqi ishlari vazirligi va YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan hamkorlikda 2006-yil 20-sentabrdan – 12-oktabrgacha YUNESKOning shtab-kvartirasida (Parij sh.) ko‘rgazma tashkil qilishdi va Xorazm Ma’mun Akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy anjuman o‘tkazishdi. O‘zbekistondagi xorij davlatlarning qator elchixonalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi olimlari ishtirokida Xorazm Ma’mun Akademiyasi faoliyatiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazishdi, shunday konferensiyani yana Saudiya Arabistonni Ilmiy-tadqiqot markazi Koreyaning Kyongxi universiteti bilan birqalikda o‘tkazishdi.

1943-yilda O‘zbekistondagi SSSR FA filiali O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi sifati qayta tashkil qilindi. Bu vaqtida uning tarkibida 10 ta ilmiy-tekshirish institutlari, shu jumladan 1943 yilda tuzilgan fizika-texnika, tarix,

sharqshunoslik, iqtisodiyot institutlari bor edi. 11 ta akademik-ta'sischi, 18 ta muxbir a'zo, 3 ta faxriy a'zo akademiya a'zolari bo'lishdi. Akademiya muassasalarida 210 nafar ilmiy xodim ishlardi, ulardan 28 nafari fan doktori va 80 tasi fan nomzodi edi. 40- yillarning ikkinchi yarmida respublika olimlarining kuchlari asosan urushdan keyingi iqtisod, madaniyat, tibbiyat va boshqa sohalarni yuksaltirishga yo'naltirilgandi.

1958-yili Toshkent shahri yaqinida yadro reaktori qurildi, u yadro fizikasi taraqqiyotiga asos bo'ldi. 60-70-yillarda O'zbekiston tabiiy va ijtimoiy fanlar sohalarida ish olib borayotgan ilmiy muassasalarning faoliyati butunlay respublika oldida turgan muhim iqtisodiy va madaniy masalalarni yechishga yo'naltirilgandi. Paxtachilik, irrigatsiya, energetika, rangli metallurgiya va boshqa tarmoqlar yuksalishining kompleks tadqiqiga alohida e'tibor qaratildi. 1987-yili Toshkent viloyatining Parkent tumanida nodir "Katta quyosh pegin" bizerkal optik-gelio-energetik tizim qurilishi tugallandi va ishlatishga topshirildi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayevning 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lism-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni (keyingi o'rnlarda — Farmon) ijrosini ta'minlash maqsadida:

#### 1. Maktabgacha ta'lism vazirligi:

a) Xalq ta'limi vazirligi va Ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda 2021-yil 1-avgustga qadar bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash hamda boshlang'ich ta'lism o'quv dasturlarining o'zaro uzviyligini ta'minlash choralarini ko'rsin;

b) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lism tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilsin, jumladan:

xalqaro standartlar va talablar asosida maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning rivojlanishini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqsin;

bolalarning o'sishi hamda maktabgacha ta'lism bilan qamrab olish jarayonlarini monitoring qilish bo'yicha "Bolalar bog'chasi" axborot boshqaruva tizimini ishga tushirsin va unga kiritiladigan ma'lumotlarning shaffofligini ta'minasin;

maktabgacha ta'lism xizmatlari uchun elektron to'lov tizimlarini joriy qilsin;

maktabgacha ta'lim sohasida axborot boshqaruv tizimini boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilsin.

Shunday qilib barchasi ilm-fan taraqqiyoti uchun yaratilgan imkoniytlar natijasida yuzaga keldi. Mustaqilligimizdan so'ng bizning xalqning o'ziga tegishli ilm-fanni o'rganishga yo'l ochildi. Doimiy ilmiy izlanishda bo'lganlar ham bor. Ilmiy akademiyalarda ko'p izlanishlanishlarga ayollar ham mavjud bo'lib, ularga keng sharoitlar yaratilgan.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, haqiqiy ilm-fan soxib va soxibalari doimiy ilmiy izlanishda bo'lar ekanlar, bizda barqaror taraqqiyot, ilm-fan va ta'limning sifati yanada oshib boradi. Barqaror taraqqiyotdagi ayolning o'rni muhim ekan, ilm-fan hech qachon izlanishdan to'xtamaydi, ayol o'z ilmini oshirishda davom etsa ta'lim sifati yanada oshib boradi. Bizning hukumatimizda ayolarga muhim shaxs sifatida qarash esa ularga eng asosiy imkoniyat bo'lib qolaveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: O'z 2014
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo`shimcha chora- tadbirlar to`g`risida"gi qarori 2020-yil 6 noyabr
3. Xaliqulova H O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida xalqaro hamkorlik Ijtimoiy fikr Inson huquqlari 2015 N2
4. <https://academy.uz/uz/page/ozbekistonda-ilm-fan-taraqqiyoti>